
Mahallada sumalak sayli

Ayni kunlarda Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan Farg'ona shahridagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlarida obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, bayram munosabati bilan sayillar, madaniy tadbirlar o'tkazilmoqda.

"Madadkor" mahallasi aholisi yurtimizga kirib kelgan fasllar kelinchagi bahorni Navro'z olamning shohona taomi – sumalak bilan qarshi oldilar. Katta qozonda sumalak tayyorlandi, tansiq va bahoriy taomlar avvalo keksalar, bemorlar, kam ta'minlangan oilalarga tarqatildi.

Mahalla ahli sumalakni tatib ko'rib, bahorga yetganiga shukr qilib, yilning yaxshi, xayrli, barakali kelishini, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va xotirjamlik bardavom bo'lishini tilab duolar qildilar.

Sumalak sayli kuy-qo'shiqlarga ulandi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-14 19:27:17